

TOKNING ASOSIY ZARARKUNANDALARI VA ULARGA QARSHI KURASHISH CHORALARI

Tolibjonov Oxunjon Odiljon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti

Ibroximov Burxonjon To'liqinjon o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Annotatsiya: Qishloq xo'jaligida juda ko'p bog'lar tashkil qilinib bormoqda lekin shular orasida uzum bog'lar juda keng tashkillanib bormoqda tabiiyki bog'lar soni ko'paygan sari ularning zararkunandalari xam ko'payib bormoqda manashunday zararkunandalarga o'z vaqtida qarshi kurashilmasa xosildorlikni 50% gacha nobud qilishi shu bilan birga uzumlarning bozorbopligi ham yomon bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar: Tok zararkunandalari, morfologiyasi, zarari, xayot kechirishi va qarshi kurashish choralari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida sifatli uzum yetishtirish maqsadida ushbu maqolani yozdik.

Inson uzoq umr ko'rishi, sog'lig'i va ishlash qobiliyati to'g'ri ovqatlanishi hamda iste'mol qiladigan mahsulot sifatiga bog'liqdir. Sog'liqni me'yoriy ko'rsatgichlarida bo'ladigan ayrim o'zgarishlar vitaminlar, mineral tuzlar, antioksidantlar hamda boshqa biologik faol moddalarni yetishmasligi muhim sabab bo'ladi. Shu sababli bu moddalarga boy mahsulotlarni iste'mol qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundaylar qatoriga, avvalo, meva mansub bo'lib, ularni bu xossalari ko'ra "salomatlik bulog'i" deb ataydilar.

Qishloq xo'jaligida murakkab va ko'p qirrali sohalardan biri bo'lgan mevachilikning asosiy vazifasi respublikamiz aholisini sifatli va ekologik toza ho'l mevalar, rezavor-mevalar bilan ta'minlashdan iborat. Mevachilik qishloq xo'jaligining hisoblanadi. Meva daraxtlari va tokning turli xil tuproq, iqlim va agrotexnika sharoitida o'stirilib, ularning mevalarini yangiligida, quritilgan hamda qayta ishlangan holda iste'mol qilish mumkin.

O'zbekistonning tabiiy iqlim sharoiti bog' daraxtlar va tokni yetishtirish uchun eng qulay hudud bo'lib hisoblanadi. Respublikamizda hozirgi kunda qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i bo'lgan mevachilikni rivojlantirish shu soha mutaxassislarining muhim vazifalaridan biridir. Quyida keltirilgan zararkunandalar tokzorlarga juda kata zararkeltirmoqda.

Tok unsimon qurti. *Rseudosossis sitri* Risso.

Zarari. Tok unsimon qurti hammaxo‘r bo‘lib, tokdan tashqari anjir, sitrus o‘simliklari va boshqa mevalarga, tut daraxtiga, har xil poliz ekinlariga va manzarali o‘simliklarga zarar yetkazadi.

Kavkazdagi kuzatishlarga qaraganda, tok unsimon qurti ko‘payib ketganda uzum hosilini ba‘zan 40-60 % gacha kamaytirib yuboradi. Zararlangan uzum burishib yoki qurib qoladi, tok novdalari tuzuk o‘smaydi.

MDHda tok unsimon qurti karantin zararkunanda hisoblanadi.

Ta‘rifi. Qurtning urg‘ochisi 3,5-4,0 mm uzunlikda, keng oval shaklida bo‘lib, oq mumsimon qavat bilan qoplangan. Terisi sarg‘ish-jigar rang mumsimon modda bilan qoplangan bo‘lib, uzunasiga ketgan qoramtir chizig‘i bor. Gavdasining ikki yonida 17 juft kalta mumsimon o‘siqlari bor; shu jumladan orqadagi bir jufti (dum iplari deb ataladigani) boshqalaridan ancha uzunroq bo‘lib, gavda uzunligining $\frac{1}{4}$ yoki $\frac{1}{5}$ qismini tashkil etadi.

Erkagining kattaligi 1,2-1,5 mm chamasida bo‘lib, bir juft qanoti, ikkita dum ipi, anchagina uzun mo‘ylovlari bor.

Tok kanasi *Eriophes vitis* Nal.

Zarari. Bu kana ba‘zan juda ko‘payib ketadi, tok barglarini so‘rib, uning novdasini ancha quvvatdan ketkazadi, natijada uzum hosili kamayadi va sifati pasayadi. Odatda bu hasharot kam bo‘lib, ikkinchi darajali ahamiyatga egadir.

Ta‘rifi. Kana oddiy ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydigan darajada mayda (mikroskopik) bo‘lib, kattaligi 0,14-0,16 mm keladi; gavdasi cho‘ziq, uchida uzun qillari bor, oyog‘i ikki juft. Tokda kana borligi barglardagi yassi g‘uddalar shaklidagi gallarga qarab bilinadi, ular bargning orqa tomonini qoplab oladi, chuqurchalari yaltiroq parda bilan o‘ralgan bo‘ladi. Yangi hosil bo‘lgan gallarning ichki tomoni oq, kumush rangda, eskilarniki qo‘ng‘ir-zang tusdadir.

Tok ipak qurti. *Porthethria disapr* L.

Zarari. Toq ipak qurti olma, nok, olcha, olxo‘ri, o‘rik, jiyda, bodom, yong‘oq, pista kabi meva daraxtlarining, dub, terak, tol, zarang, shumtol va boshqa ko‘pgina meva qilmaydigan manzarali daraxtlarning bargini yeb, ba‘zan urug‘iga ham zarar yetkazadi. Qurt tushgan daraxtlar o‘sha yili, ba‘zan esa kelasi yili ham meva qilmaydi.

Ta‘rifi. Erkagi va urg‘ochisining tashqi ko‘rinishida katta farq bo‘lgani uchun unga *toq ipak qurt* deb nom berilgan. Erkagining kattaligi, qanotlarini yozib turgandagi taxminiy uzunligi 5 sm, urg‘ochisining 7 sm keladi. Erkagining qanotlari, ko‘kragi va qorni qo‘ng‘ir-kul rang, oldingi qanotlarida ko‘ndalangiga ketgan to‘lqinsimon hoshiyalar bor; mo‘ylovlari eshkakka juda ham o‘xshaydi; qorni ingichka bo‘ladi.

Urg'ochisi oq yoki xira sarg'ish; qanotlarining tashqi chekkasida bir qancha o'tib dog'lar, oldingi qanotlarida – ko'ndalang qoramtir to'lqinsimon chiziqlar bor; mo'ylovlari ingichka, sal-pal eshkakka o'xshaydi, qorni juda yo'g'on bo'ladi. Erkak va urg'ochilarining g'umbagi bir xil kattalikda emas: erkak g'umbagining kattaligi taxminan 2 sm, urg'ochi g'umbagining kattaligi 3,5 sm ga qadar boradi. Erkagining ham, urg'ochisining ham g'umbaklari jigar rang bo'lib, tutam-tutam sariq tuklari bor. G'umbaklar siyrak o'rgimchak iplaridan tuzilgan g'alvirak pilla ichida yoki ko'pincha o'zidan chiqargan o'rgimchak iplarining shakllanmagan chigalida turadi.

Oziqlanishni tamomlayotgan qurtning uzunligi 7 sm gacha boradi. Toq ipak qurti tanasining yuqori qismida yirik so'gallari bor; tanasining oldingi yarmidagi so'gallar ko'k orqa yarmidagi so'gallar esa qizil bo'ladi; so'gallarida uzun tuklar tutam-tutam bo'lib turadi. Qurtlar och kul rang tusda; orqasi bo'ylab sarg'ish yo'l o'tadi. Tuxumi sharsimon; dastlab och sariq bo'lib, keyin qo'ng'ir tusga kiradi; tuxumlari to'p-to'p bo'lib va ustidan ochiq qo'ng'ir kalta tuklar bilan qoplanib turadi; shu bilan birga tuklar ko'pincha to'pning ichida, tuxumlar orasida ham bo'ladi.

Bog' va tokzorlarni himoya qilish vositalari

Insektitsidlar xasharotlarga qarshi, akaritsidlar meva o'rgimchakkanalariga qarshi, fungitsidlar kasalliklarga qarshi qo'llaniladi. quyida keng tarqalgan, ishlab chiqarishda dala, xovli va tamorqada ishlatish uchun ruxsat etilgan preparatlarga qisqacha ta'rif beramiz. Mevalarda preparat qoldiqlari bo'lmasligi uchun ulardan ko'rsatilgan muddatlardagina foydalanish mumkin.

Insektitsid va akaritsidlar. Karbofos (50 % li emulsiya konsentrati). Och sariq rangli suyug'lik, yoqimsiz hidga ega, ammo purkalgandan keyin hidi tezda yo'qoladi. Suv bilan yaxshi aralashadi. So'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalarga qarshi olma, nok, olxo'ri, gilos va tokni himoya qilishda qo'llaniladi.

Zararkunanda tuxumlariga ta'sir qilmaydi. Shuning uchun kanalarga qarshi kurashda 7-10 kun oralatib kamida 2 marotaba purkash kerak. Oxirgi purkash hosilni yig'ishtirishdan 20 kun oldin tugallanishi lozim. Bog'larning turi va yoshiga qarab 1 gektarga 1-3 kg gacha preparat sarflanadi.

Benzofosfat (30% li) xo'llanuvchi kukun hoida ishlab chiqariladi. Barg va tokzorlarda mavsum davrida mevaxo'r va barg kemiruvchi qurtlarga, shira va kanalarga qarshi qo'llaniladi. Oxirgi purkash hosilni yig'ishtirishdan 30 kun avval tugallanishi lozim. Bog'larning turi va yoshiga qarab 1 gektarga 2,5-4,5 kg sarflanadi.

Zolon (35% li) qo'llanilishi jixatidan benzofosfatdan farq qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimuxammedov S.N. Xodjaev Sh. “G‘o‘za zararkunandalari va ularga qarshi kurash” ,T 1980
2. Kimsanboev X.X.G‘o‘za zararkunandalariga qarshi uyg‘unlashgan kurash choralari ma’ruza matni T., 1994
3. Kimsanboev X.X. va b. “Umumiy va qishloq xo‘jalik yentomologiyasi”. T.2002
4. Plotnikov V.I. Nасекомые вредящие хоzyаyственным растениям в Sredney Azii, T. 1926
5. Xamraev A.Sh., Abdullaeva D.R. Beda agrobiosenozi fitofaglari Uzbekiston biologiya jurnali 2005 №4 b.57-61.
6. S.A.Mirzaeva¹ , I.U.Tuychiev² & O.O Talibjanov³ (2022). JOURNAL OF OPTOELECTRONICS LASER, The Use of Biological Agents in the Fight Against the Pomegranate Moth 606-610
7. Tolibjonov Oxunjon Odiljon o‘g‘li (2022) Anorni zararkunandalardan himoyalash Agro ilim 34-35
8. Tolibjonov Oxunjon Odiljon o‘g‘li (2022) Anorni zararkunandalardan himoyalash Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 956-959
9. Odiljon O‘g‘li T. O., Ilhomjon o‘g‘li J. D. AZOT YIG ‘UVCHI BAKTERIYALAR. – 2023.